## Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

### “Pedagogika va psixologiya fanlari” yo‘nalishi

<table>
<tr><th>Loyiha mavzusi</th><th>Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija</th></tr>
<tr><td>

**O‘zbekiston sportchilarida sun’iy intellekt asosida individual mashg‘ulot yuklamalarini boshqarish tizimini ishlab chiqish**




</td><td>

**Tadqiqot shakli:** Amaliy.

**Ilmiy tadqiqot natijalari:**

1. Sportchilarning funksional holati, yuklama darajasi va tiklanish jarayonlarini tahlil qiluvchi milliy AI-based training management tizimi yaratiladi.
2. Sun’iy intellekt (AI) asosida sportchining yurak urishi, charchoq darajasi, yuklamaga reaksiyasi, tiklanish tezligi, funksional imkoniyatlari kabi ko‘rsatkichlarini avtomatik tahlil qiluvchi algoritmlar ishlab chiqiladi.
3. Har bir sportchi uchun individual mashg‘ulot yuklamalarini avtomatik rejalashtirish va optimallashtirish imkoniyati yaratiladi.
4. Funksional pasayish va jarohat xavfini erta prognoz qilish tizimi joriy etiladi.
5. Mashg‘ulot samaradorligini real-time monitoring orqali baholash imkoniyati yaratiladi.
6. Trenerlar uchun qaror qabul qilishni qo‘llab-quvvatlovchi intellektual analitik dashboard ishlab chiqiladi.
7. Turli sport turlari bo‘yicha yuklama me’yorlari va AI prediction modellari shakllantiriladi.
8. Wearable sensor texnologiyalari bilan integratsiyalashgan raqamli monitoring ecosystem yaratiladi.
9. Paralimpiya sportchilari uchun adaptiv AI-mashg‘ulot modellari ishlab chiqiladi.
10. O‘zbekiston sporti uchun ilk bor “Smart Training Data Center” milliy ma’lumotlar bazasi shakllantiriladi.

**Natijalarni sinovdan o‘tkazish.** Olingan natijalar Sport vazirligi tizimidagi tashkilotlar va muassasalarda sinovdan o‘tkaziladi, ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida **Sport vazirligining** xulosasi olinadi.

**Ilmiy natijalarni chop etish.** Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va *Web of Science/Scopus* ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi

**Izoh.** Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar **Sport vazirligining** qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.

</td></tr>
</table>